



NAMANGAN VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)






Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha
2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


3

21 238



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

1 176



Oilaviy korxonona

131



Unitar korxonona

7 453



Xususiy korxonona

22



Aksiyadorlik jamiyati

506



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonona va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.


Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2021-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(yanvar-sentabr oylarida)






Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 1 231 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 306 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 176 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 288 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 293 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 113 taga yoki 27,8 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 21 796 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 376 taga yoki 1,3 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 21 238 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4 210 taga yoki 1,2 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 3 977 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 414 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra 281 tani tashkil etib, ulardan 283 tasi yoki 97,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 26 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- oktabr holatiga, birlikda)




**Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Rossiya Federatsiyasi	58	46	12
Qozog'iston Respublikasi	11	7	4
Xitoy Xalq Respublikasi	52	30	22
Qirg'iz Respublikasi	11	10	1
Tojikiston Respublikasi	10	8	2
Turkiya Respublikasi	33	16	17
Hindiston Respublikasi	13	4	9
Janubiy Koreya Respublikasi	33	24	9
Singapur Respublikasi	4	2	2
Eron Islom Respublikasi	4	2	2

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


10

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Namangan viloyati	281	182	99
Namangan shahri	87	55	32
Mingbuloq	7	2	5
Kosonsoy	29	23	6
Namangan	15	14	1
Norin	12	7	5
Pop	28	18	10
To'raqo'rg'on	15	8	7
Uychi	19	17	2
Uchqo'rg'on	10	5	5
Chortoq	26	16	10
Chust	20	10	10
Yangiqo'rg'on	13	7	6

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Namangan shahrida 87 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 31,0 %), Kosonsoy 29 ta (10,3 %) Pop 28 ta (10,0 %), Chortoq 26 ta (9,2 %), Chust 20 ta (7,1 %), Uychi 19 ta (6,8 %) hamda Namangan 15 ta (5,3 %) dan tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Namangan shahri (33,5 %), Chust (8,4 %), Namangan (6,9 %), Uychi (6,6 %), Pop va To'raqo'rg'on (6,3 % dan), Kosonsoy (6,0 %) Uchqo'rg'on (5,9 %), Chortoq (5,6 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), Norin (4,9 %) hamda Mingbuloq (4,5 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


2021-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Namangan shahrida (27,0 %), Chust (9,0 %), To'raqo'rg'on (7,5 %), Chortoq (6,7 %), Pop (6,6%), Uychi (7,2 %), Uchqo'rg'on (7,0 %), Norin (6,4 %), Namangan (6,6 %), Mingbuloq (5,6%), Kosonsoy (5,4 %) hamda Yangiqo'rg'on (5,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




2021- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Namangan shahrida (37,3 %), Uychi (7,3 %), Pop (6,7 %), Namangan (6,5 %), Chortoq (6,3 % dan), Kosonsoy (6,0 %), Chust (5,5 %), Uchqo'rg'on (5,3 %), Norin (5,2 %), Yangiqo'rg'on (5,1 %), To'raqo'rg'on (5,0 %), Mingbuloq (3,8 %) tumanlari hissasiga tegishli.



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, viloyatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni



(2021- yilning yanvar-sentabr oyida, birlikda)



2021- yilning yanvar-sentabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda To'raqo'rg'on (26,3 %), Yangiqo'rg'on (17,4 %), Chortoq (13,3%), Namangan shahri (12,0 %), Namangan (11,3 %), Uchqo'rg'on (6,1 %), Chust (5,1 %), Kosonsoy (2,7 %), Mingbuloq (2,1 %), Uychi (1,7 %), Norin va Pop (1,0 % dan) tumanlari hissasiga tegishli.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-sentabr oyida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.